

FRANSIYA TA'LIM TIZIMI XUSUSIYATLARI

*Mardonova O'g'iloy Mustafo qizi**Kattaqo'rg'on Davlat Pedagogika Instituti**Pedagogika yo'nalishi 3 bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fransiya ta'lim tizimidagi o'ziga xosliklar, ta'lim tizimi tarixi, tubdan o'zgartirgan qonun va qarorlar, Fransiya ta'lim tizimidagi afzalliklar va ularni O'zbekistonda ham joriy etish usullar to'g'risida so'z boradi

Kalit so'zlar: konsepsiya, qaror va farmoyish, ta'lim tizimi, didaktik metodlar, tarixiy universitetlar, fanlar va yo'nalishlar va boshqalar...

Turli xil davlatlar ta'lim tizimi o'ziga xoslikni kasb etadi. Ularni o'rganish davomida ta'lim tizimidagi afzalliklar va ularni O'zbekistonda joriy etish va moslashtirish to'g'risida fikr yuritamiz. Jumaldan, Fransiya ta'lim tizimi ham tarixi va o'z afzalliklari bilan kishini o'ziga jalb etadi.

Fransiya Respublikasi Poytaxti: Parij, rasmiy tili: fransuz tili, aholisi: taxminan 67 million kishi, pul birligi: Yevro (EUR), davlat boshqaruvi: Respublika, yarim prezidentlik boshqaruvi, a'zolik: Yevropa Ittifoqi, NATO, BMT, G7, Geografik joylashuvi Fransiya G'arbiy Yevropada joylashgan. Uning qo'shnilari: Belgiya Germaniya Italiya Ispaniya Shveysariya Lyuksemburg Andorra Monako. Bundan tashqari, Fransiyaga qarashli ko'plab orol hududlari (Gvadelupa, Martinika, Reunion, Fransuz Polineziyasi) mavjud.

Tarixi: Fransiya Yevropa tarixidagi eng muhim davlatlardan biri hisoblanadi. **1789-yilgi Fransuz inqilobi** — dunyoda demokratiya va inson huquqlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Napoleon davri, ikki jahon urushi va Yevropa Ittifoqining asoschilaridan bo'lishi bilan mashhur.

Asosiy shaharlari:

Parij — moda va san'at markazi

Marsel — yirik port shahri

Tuluza — aviatsiya markazi (Airbus)

Nitsa — Rivyera sohillarida joylashgan sayyohlik shahri

Madaniyati: Fransiya dunyoga san'at, adabiyot, oshxona va moda sohalarida katta ta'sir ko'rsatgan.

Mashhur jihatlari:

Eyfel minorasi, Luvr muzeyi, Versal saroyi

Ko'plab mashhur yozuvchilar: Viktor Gyugo, Aleksandr Dyuma, Molyer

Ta'lim va ilm-fanga e'tibor nihoyatta katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu davlatda universitetlar qadimdan paydo bo'lgan va o'z nufuzi bilan haligacha omma e'tiborini o'ziga jalb etmoqda!

Fransiya dunyoning eng nufuzli universitetlariga ega:

Sorbonna universiteti

Ecole Polytechnique

Sciences Po. Bundan tashqari, Fransiya Germaniya bilan birga Yevropa ilmiy markazi hisoblanadi.

Iqtisodiyoti: Fransiya Yevropa Ittifoqidagi eng yirik iqtisodlardan biri. Yetakchi sohalar: Aviatsiya (Airbus), Avtomobil ishlab chiqarish (Renault, Peugeot) Moda va brendlar (Louis Vuitton, Chanel, Dior) Turizm — dunyoda eng ko'p sayyoh tashrif buyuradigan davlat. Turizm. Fransiya har yili 80 million sayyohni qabul qiladi.

Eng mashhur joylari:

Parij (Eyfel minorasi, Luvr), Fransuz Rivyerasi Provans Alp tog'lari (Chamonix, Annecy) Bordo uzumzorlari

Fransiya dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi bilan ahamiyatga molikdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, fransuz tili go'zalligi va jozibasi bilan dunyo tillari ichida eng yuqori o'rinni kasb etad. Fransiya va uning boy madaniyatidagi o'ziga xosliklar yana quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Fransuz tili dunyo bo'yicha eng ko'p o'rganilgan til {ingliz tilidan keyin 2 o'rin}!!!

Fransuz tili BMT. Yevropa Ittifoqi. UNESCO. NATO. Xalqaro Olimpia qo'mitasi va bir qator tashkilotlarning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi!!!

IV-IX asrlar Frank qabilalari Galliyaga kelib, german tillari ta'sirini olib kirdi va shu davrda lotin va fransuz tili aralashuvi natijasida fransuz tili vujudga keldi!!!

Fransuz tili Fransiyaning o'zidan tashqari, Kanada, Belgiya, Shvetsariya, Afrika mamlakatlari va Karib orollari va boshqa hududlarda rasmiy yoki eng keng tarqalgan til deya e'tirof etiladi!

Biz alohida to'xtalib o'tishimiz lozim bo'lgan asosiy jihat shundaki – bu Fransiya ta'lim tizimi va ushbu tizimning kelib chiqish tarixidir. Fransiya ta'lim tizimi boy qadimiy tarixga ega. Bu yerda "Ta'lim haqidagi" qonun dastlab, 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda bir qator o'zgartirishlar kiritilgan. Fransiyaning hozirgi kunda amal qilinayotgan ta'lim haqidagi qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan. Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozorz munosabatlari sharoitida o'qishini ta'minlash, ishbilarmonlik va tadbirkorlik, kasb hunarga yo'naltirishdir.

Ta'lim tizimidagi o'ziga xosliklar:

Mamlakatda maktablar : **Davlat, Xususiy, Oraliq maktablarga bo'linadi!**

O'qitiladigan fanlari: **fransuz tili, 45% darslar gumanitar yo'nalishda, qolgan fanlar esa tabiiy fanlar sirasiga kiradi!**

Boshlang'ich sinflarda darslar: **Ertalabki va tushdan keyin o'tilgan. Ertalab ona tili, tushdan keyin esa boshqa fanlar o'qitilgan!**

Sinflarda haftalik dars soatlari 26 soatni tashkil etib, sinfdagi bolalar soni esa 35-40 tadan oshirilmagan! Ta'lim tizimidagi afzalliklar quyidagilarni tashkil etadi:

Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni "**onalar maktabi**" deb ham yuritishadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarning maktabdagi sharoitini o'z sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Bu esa o'rnida ta'lim tizimiga bola moslashuvida eng afzallik jihatidir!

O'qituvchilarga hurmat va ehtirom Fransiya ta'lim tizimining farqli jihatlaridan biridir. Fransiyada O'qituvchilarning huquqlari qonunlar bilan aniq qilib himoyalangan. Fransiyada rasmiy o'qituvchilar kuni an'anaviy tarzda milliy bayram sifatida alohida nishonlanadi. Lekin, **5-oktabr Butunjahon O'qituvchilar kuni** ham alohida e'tirof etiladi. Ushbu kun o'qituvchilar mehnatini qadrlash va hurmat qilishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilishi bilan farqlidir!

O'zbekiston va Fransiya ta'lim tizimidagi farqlar!

O'zbekiston_

11 yillik majburiy ta'lim;

Maktablarda bepul ta'lim, ayrim darsliklar davlat hisobidan beriladi;

Iqtidorli bolalar uchun alohida maxsus {Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar} bor!

O'qituvchilar kuni 1-oktabr!

Fransiya

3yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy ta'lim;

Darsliklar, jihozlar va hatto maktab transporti ham ko'pincha bepul;

O'qituvchilar huquqlari qonun bilan himoyalangan;

Maxsusu ehtiyojli bolalar uchun alohida dasturlar ishlab chiqilgan;

O'qituvchilar kuni 5-oktabrda nishonlanadi lekin milliy darajada emas!

Fransiyadagi eng mashhur qadimiy universitetlar:

I.Tuluza

Tashkil topgan joyi-Tuluza shahri

Tashkil etilgan vaqti-1229-yil

Tashkil etgan shaxs- Qirol Lui IX

Tashkil etilishidan maqsad-Diniy nizolarni oldini olish

II.Montipeller

Tashkil etilgan vaqti-1289-yil

Faoliyati-Dastlab tibbiyot maktabi sifatida

Iqtisoslgi-Tibbiyot, Biologiya, Tabiiy fanlar

III. Avinion

Tashkil etilgan vaqti-1303-yil

Tashkil etilgan joyi-Avinion shahri

Asosiy yo'nalishlari-Diniy va falsafiy {sabab Avinion papalar shahri}

Fransiya talim tizimini tubdan o'zgartirgan qonun va qarorlar

JUELS-FERRY qonunlari(1881-1882)

Boshlang'ich ta'lim bepul, majburiy maktablardagi ta'limni dindan ajratish

LANGEVIN-WALLON loyihasi (1947)

Ta'limda teng imkoniyat va yagona tizimni joriy etish

HABY qonunlari (1975) Kollej tizimini joriy etish, ta'lim mazmunini almashtirish

FILLON qonuni (2005) Ta'limning asosiy majburiyatlari, matematika, til, axborot va texlogiyaga e'tibor

Fransiya ta'limida eng ko'p qo'llaniladigan metod va vositalar:

Didaktik metod-asosiy bilim manbai o'qituvchi, va ma'lumotning katta qismi o'qituvchi tomonidan beriladi.

Konstruktivistik-o'quvchilar o'zlari mustaqil o'rganib izlanishadi

Tadqiqotga asoslangan metod-kuzatuv tajriba va tahlil

Raqamli o'qitish-interaktiv doskalar, onlayn platformalar orqali dars jarayonini tashkil etish (200-yildan e'tiboran)

Ta'lim mazmuni

I.Boshlang'ich maktab-Fransuz Matematika Atrof-muhit hayoti San'at va musiqa Jismoniy tarbiya

II.O'rta maktab - Fransuz tili Tarix va geografiya Tabiiy fan Chet tillar .Madaniyat va san'at

III. Litsiy: kimyo, fizika, Biologiya, Iqtisod, Huquq

IV Yuqori ta'lim: Fan va texnologiya, mehnatsevarlik, IT, Iqtisod, Tilshunoslik

Xalqaro baholash dasturida Fransiyaning ko'rsatgan natijalari

PISA-har 3 yilda 1 marotaba o'tkaziladi. Ushbu dasturda Fransiya 2000-2003-yillar oralig'ida

O'qish savodxonligi-505 ball(2000)

Matematika-511ball(2003)

Boshqa fanlar-499 ball(2003)

2006-yildan boshlab pasaya bordi

TIMSS-8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Ushbu dasturda

Matematika-538 ball(1995 yil)

Boshqa fanlar-519ball(1995)

Shuningdek 2015-488 ball, 2019-485 ball, 2023-573 balli ko'rsatkichlarni qayd etgan

PIRLS-Asosiy yo'nalishlari-Adabiy matnlar(hikoya, ertak, rivoyat va b...), Axborot matnlari(maqola, ensklopediya, tabiatga oid ma'lumotlar) Ushbu dastur bo'yicha qayd etilgan natijalar:

2001-yil o'qish savodxonligi bo'yicha-525 ball, 2021-yilga kelib esa-511 ballni tashkil etadi

Shuningdek, Fransiyada o'qituvchilarni qayta tayyorlash tizimi ham alohida e'tiborga molik ish bo'lib, Fransiyada o'qituvchilarni qayta tayyorlash (CPD) — doimiy, tizimli va xilma-xil yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. 2022-yildan boshlab amalga oshirilgan islohotlar orqali ushbu tizim jahon standartlariga yondashdi — hududiy tayyorlash maktablari, zamonaviy kurslar (til, inkluziv ta'lim, raqamli o'qitish), ham onlayn, ham oflayn shakllar. Agar boshqa davlatlar — masalan, O'zbekiston — bunday yondashuvni to'liq joriy qilsa, pedagoglar salohiyati va ta'lim sifati sezilarli darajada oshishi mumkin. Fransiyada o'qituvchilarni qayta tayyorlash bo'yicha so'nggi yillarda sezilarli darajada islohotlar amalga oshirildi: O'qituvchilar uchun **inklyuziv ta'lim bo'yicha majburiy malaka oshirish modul** kiritildi.

Maxsus ehtiyojli bolalar soni oshgani uchun **pedagog-assistentlar** tayyorlash bo'yicha yangi kurslar ochildi.

Ta'lim vazirligi inkluziv ta'limni mamlakatning ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Ushbu islohotlar tizimida tub burilish yasagan asosiy mavzulardan biri bu – Covid19 pandemiyasi bo'ldi. Pandemiya davrida quyidagilar ishlab chiqildi va ularning afzalliklari:

Masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha **tezkor qayta tayyorlash kurslari**.

Onlayn platformalar: *Ma Classe Virtuelle, Moodle, ENT, Zoom* va boshqalarni qo'llash bo'yicha treninglar. O'qituvchilarni masofadan turib dars berishga o'rgatish uchun **intensiv kurslar** yaratildi. 600 000 dan ortiq o'qituvchi qisqa vaqt ichida raqamli pedagogika bo'yicha qayta tayyorlandi. Bu yerda e'tiborga molik jihat shundan iboratki, aynan raqamlashtirishning ta'lim tizimi bilan integratsiyasi yuzaga kela boshladi va quyida ushbu masala yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va ularning amaldagi ijro va ahamiyatini ko'rishimiz mumkin:

O'qituvchilar uchun **AI-savodxonlik** (AI literacy) kurslari yo'lga qo'yildi.

Sun'iy intellekt yordamida diagnostika, baholash va individual o'quv yo'llarini yaratish bo'yicha treninglar. "Hybrid learning" (aralash o'qitish) usullari bo'yicha yangi metodik paket chiqarildi. Fransiya o'qituvchilari Yevropada AI-pedagogika bo'yicha eng faol o'rganuvchi guruhlardan biriga aylandi.

Xulosa o'rnida shularni aytishimiz mumkinki:

Fransiya ta'lim tizimim afzalliklaridan o'z mentalitetimizga moslashtirgan holda quyidagi islohotlarni amalga oshirish mumkin:

1. O'qituvchilar kunini 5-oktabrga ko'chirish yoki qo'shimcha tarzda kiritilib nishonlash; maqsad alohida e'tirofni Butunjahon miqyosiga aylantirish!
2. Maktablarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun alohida o'quv dasturlari ishlab chiqish- ularning yoshini, imkoniyatlarini hisobga olgan holda!
3. Maktab o'quvchilari uchun alohida transport xizmatlarini bepul tarzda yo'lga qo'yish-maqsad o'quvchilarning darsga to'liq kelishlari va o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlash bilan bir qatorda moddiy tomonlama ham ota onalarga ko'mak bo'lishini ta'minlash!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev.M, Saidov A. "Ta'lim tizimlari qiyosiy tahlili" (2021). Toshkent nashriyoti
2. Raxmonqulov H "Jahon ta'lim tizimlari" (2022) Toshkent. "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti
3. Mavlonova R, Xoliyorova N. "Pedagogik nazariya va amaliyot". Toshkent nashriyoti